

INTERNATIONAL JOURNAL OF
WORLD LANGUAGES





International Journal of World Languages

Volume 1, No. 2, June 2021

Internet address: <http://ejournals.id/index.php/IJWL/issue/archive>

E-mail: info@ejournals.id

Published by ejournals PVT LTD

Issued Bimonthly

Requirements for the authors.

The manuscript authors must provide reliable results of the work done, as well as an objective judgment on the significance of the study. The data underlying the work should be presented accurately, without errors. The work should contain enough details and bibliographic references for possible reproduction. False or knowingly erroneous statements are perceived as unethical behavior and unacceptable.

Authors should make sure that the original work is submitted and, if other authors' works or claims are used, provide appropriate bibliographic references or citations. Plagiarism can exist in many forms - from representing someone else's work as copyright to copying or paraphrasing significant parts of another's work without attribution, as well as claiming one's rights to the results of another's research. Plagiarism in all forms constitutes unethical acts and is unacceptable. Responsibility for plagiarism is entirely on the shoulders of the authors.

Significant errors in published works. If the author detects significant errors or inaccuracies in the publication, the author must inform the editor of the journal or the publisher about this and interact with them in order to remove the publication as soon as possible or correct errors. If the editor or publisher has received information from a third party that the publication contains significant errors, the author must withdraw the work or correct the errors as soon as possible.

OPEN ACCESS

Copyright © 2021 by Thematics Journals of Applied Sciences

EDITORIAL BOARD

Ambreen Safdar Kharbe,
Najran University,, Saudi Arabia

Erdem Akbaş,
Erciyes University, Turkey

Oksana Chaika,
National University of Life and Environmental
Sciences of Ukraine, Ukraine

Fatma Kalpaklı,
Selçuk University, Turkey

Zekai Gül,
University of Minnesota, Islamic College of
Languages and Translation

Birsen Tütünış,
Kültür University, Turkey

Nurdan Kavaklı,
Izmir Democracy University, Turkey

Anette Ipsen,
University College Copenhagen, Denmark

Lotte Lindberg,
University College Copenhagen, Denmark

Miriam Eisenstein,
New York University, United States

Boudjemaa Dendenne,
University of Constantine I, Algeria

Ismail Hakkı Mirici,
Hacettepe University, Turkey

Lily Orland Barak,
University of Haifa, Israel

Maggie Sokolik,
University of California, Berkeley, United States

Manana Rusieshvili-Cartledge,
Tbilisi State University, Georgia

Maryam Zeinali,
Urmia University, Iran Islamic Republic

Mehmet Demirezen,
Ufuk University, Turkey

Sejdi M. Gashi,
Institute of Albanology-Pristina(Kosovo), Albania

Priti Chopra,
The University of Greenwich, Greece

Rome Aboh,
University of Uyo, Nigeria

Salam Yusuf Nuhu Inuwa,
Kano State College of Arts and Sciences, Nigeria

Zeleke Arficho Ayele,
Hawassa University, Ethiopia

Mustafa Zhabborovich Bozorov
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Martaba Numonovna Melikova
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Mastura Mizrobovna Oblikulova
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Erkinov Sukhrob Erkinovich
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Eko Susanto
Menegment of journal Indonesia

Shirinova Inobat Anvarovna
Guliston State University

Akramjon Abdikhakimovich Shermatov
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Akhmedova Shoira Nematovna
Professor of the Department of Uzbek Literature,
Bukhara State University

**O'ZBEK TILIDAGI ANONIM XATLARNING MILLIY KORPUS ASOSIDAGI
TAHLILI, O'RNI, AHAMIYATI**

Turaeva Dildora Anvarovna

Lecturer of the Department of "Applied Linguistics and Linguodidactics"
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after A. Navoi.
dildoratorayeva9@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tilidagi anonim shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasi haqida fikr bildirilgan. Yozishmalardagi noadabiy sintaktik unsurlarni uning milliy korpusini yaratish, uning lingvistik ekspertizadagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan. Milliy korpus yaratish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: anonim xat, lingvistik ekspertiza, lingvistik ekspertiza usullari, noadabiy grammatik shakllar, milliy korpus, noadabiy sintaktik shakllar

**ANALYSIS, ROLE, IMPORTANCE OF ANONYMOUS LETTERS IN THE
UZBEK LANGUAGE ON THE BASIS OF THE NATIONAL CORPUS**

Abstract

The article gives an opinion on linguistic expertise of anonymous personal correspondence in the Uzbek language. The non-essential syntactic suffixes in the correspondence are thought about the creation of his national body, its importance in linguistic expertise. The methods of creating a national body are described.

Keywords: anonymous letter, linguistic expertise, methods of linguistic expertise, non-literary grammatical suffixes, national corpus, non-syntactic suffixes

O'zbek shevalarining morfologiyasi mustaqil, yordamchi va oraliqdagi so'z turkumlariga bo'lib o'r ganiladi. Ma'lumki, so'z turkumlarni aniqlashda morfologik-leksik va sintaktik belgilar asos qilib olinadi hamda bu so'z turkumlari ham turli kategoriyalarga, guruhlarga ajratiladi. So'z turkumlarini tasnif qilish, turli noaniqliklarni bartaraf etish masalasida Y.D.Polivanov,X.Komilova,U.Tursunov,V.V.Reshetov,A.G'ulomov,Sh.Shoabdurahmonov kabi olimlarning xizmatlari katta. So'z turkumlari tasnifida sheva materiallarida o'zaro umumiyliliklar bilan bir qatorda, o'ziga xos tomonlar ham ko'zga tashlanib turadi. Buni ot so'z turkumida egalik, kelishik, fe'l so'z turkumida zamon, mayl, shaxs-son kategoriyalarini o'rganish kabi sohalarda aniq tasavvur etish mumkin.

Tabiiyki, so'z va qo'shimchalarining talaffuzi va yozilishida ayrim adabiy me'yordan chekinish hollari uchraydi. Nutq xatolarining eng keng tarqagan turlari strukturaviy va nutq zonalariga yoki til darajalariga qarab farqlanadi. Shunday qilib, leksik darajada, o'z navbatida, leksik xatolar yoki so'z ishlatishdagi xatolar, morfologik darajada grammatik shakllarni o'zgartirish va ishlatishdagi xatolar birgalikda morfologik deb ataladi. Sintaktik darajada jumlalar va jumlarining sintaktik qurilishida xatolar kabi turlari farqlanadi. Talaffuzda orfoepik va aksentologik xatolar ajratiladi, ammo bu ba'zan yozuvda aks etishi mumkin. Frazeologik birliklarni ishlatish bilan bog'liq frazeologik xatolar, so'z shakllanishi sohasida o'zak va qo'shimcha birikuviga oid xatolar ajratiladi. Tabiiyki, ushbu turlarning har birida turli xil subtipalar mavjud bo'lib, ular qaysi me'yorlar buzilganiga qarab belgilanadi.

Grammatik vositalar morfologik birlik hisoblanib, shaxs-son, zamon, mayl shakllari, egalik, kelishik, ismni kesimga xoslovchi shakllar sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar sirasiga kiradi. Jumladan, fe'lning uchinchi shaxs ko'pligi hurmat ma'nosida kelishi Farg'ona,

Andijon va Qo'qon shevalarida uchraydi. Masalan, buvm kelishti (Farg'ona); ozleri eytiller (Andijon), emekim bog'den uy olishi pti, ekelerin kelishtime (Qo'qon) kabi. Bu so'zshakllar Farg'ona guruh shevalarida boshqa variantda qo'llaniladi, ya'ni uchinchi shaxs ko'pligi uchinchi shaxs birligida qo'llaniladi. Masalan, hojimetler keldi (Andijon); bular joy meqomga ketti (Marg'ilon). Bu hududlararo leksik o'ziga xoslikni ifodalaydi. Ushbu misollar dialektologiyaning areologiya sohasiga taalluqli hisoblanadi. Integratsiyalashuv jarayoni kuchaygan sari tilshunoslikning amaliy sohalari ham ko'paymoqda. Areologiyaning ma'lumotlariga tayangan holda lingvistik ekspertiza tarmog'i rivojlanmoqda. Bu esa areologiyaga oid ma'lumotlarning sud-huqu tizimidagi ahamiyatini oshiradi.

Anonim shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertiza olib borishda, dastlab, jarayon yuzasidan yozishma dalillari olinadi, so'ng har bir muammoli xat uchun alohida dalil sifatida olingan yozishmalarga asoslangan korpus yaratiladi. Anonim shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlarni aniqlash masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning ayrimlarida noadabiy grammatik shakllarni avtomatik tarzda aniqlash masalasi ilgari surilsa, ayrimlarida matndagi grammatik shakllarning chastotasiga ko'ra tahlil qilish usullari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, muallifi noma'lum shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasida matndagi xatolarning turlari quyidagicha tasnif qilinadi :

1.Orfografik xatolar: qo'sh undoshlardan birining tushirib qoldirilishi(hamma -hama); harflarning o'zaro o'rinni almashinushi (shoh-shox) kabi.

2.Sintaktik xatolar: noadabiy gap bo'laklari; so'zlarning noo'rin takrori; sintaktik shakllardan no'rin foydalanish; sintaktik shakllarning o'rnini almashtirgan holda qo'llash kabi.

Ma'lumki, namunaviy nutqqa qo'yiladigan asosiy talab uning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishidir. Bunda gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan foyda-lanish, gapda so'z va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabat-larning to'g'ri bo'lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning bog'lanishiga e'tibor berish, gapda so'zlar tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilish muhimdir. Ammo nutqda har doim ham sintaktik normalarga amal qilinmayapti. Gazeta tilida ham sintaktik normaning buzilish hollarini kuzatish mumkin. Gazeta tilida sintaktik me'yor buzilishlari quyidagi hollarda yuz bergen:

1.Gapdag'i mantiqiy bog'lanishning buzilishi.

2.Jumla tuzishda so'zlarni tegishli shaklda ishlata olmaslik.


3.Jumlalarni ortiqcha cho'zib yuborish va gaplarning bog'lanishidagi mazmuniy uzilishning sodir bo'lishi.

4.Sodda gaplarni sun'iy ravishda qo'shma gap tarkibiga birlashtirish.

5.Gapda so'z tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilmaslik.

6.Jumda tuzishda faqat badiiy uslubga xos elementlardan foydalanish, fikrning aniq ifodalishiga putur yetkazish.

Demak, sintaktik xatolar tor ma'noda sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar doirasida yuz bersa, keng ma'noda so'zlarning birikuvi, gap bo'laklari va gaplarning o'zaro aloqasi, so'z va qo'shimchalardagi sintagmatik munosabatlar, bog'lovchi va ko'makchilarning so'z bilan birikuvi kabi munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin.



Man yurimman, qo'lib yurimman, sessiyalayam oxital qolli. Onan ukamlayam yashni yuribti, nase-tiz omang. Eshkam mataligida boryotudi, yaqinda tugabti - omang aytyotudila. Ishimma tuxtagan, xozi uygaman, hyunam qomoqchidim uzyaqat uzgarib qolli. Oshbam keluvir diyoptila.

Anonim xatning qo'lyozma tariqasidagi ifodasida ham o'ziga xos jihatlarini aniqlash bosqichma-bosqich amalga oshadi. Avvalo, matnning umumiy mazmuni, shakli xususiyati, yozishma turi aniqlanadi. Lingvistik tahlilda esa ikkinchi bosqichga ko'ra, tovush, qo'shimcha, so'z, birikma va gaplarga xos xususiyatlar farqlanadi. Ushbu anonim xatda punktuatsiya masalasida me'yor mavjud, demak, boshqa sathlararo tahlilni davom ettiramiz

Olmosh so'z turkumiga oid so'z: man (men);

Fe'l so'z turkumiga oid so'z: yurimman, yuribti, qolli, omang, boryotudi, aytyotudila, tugabti, tuxtagan, qomoqchidim, uzgarib qolli, keluvir, diyoptila;

Ot so'z turkumiga oid so'z: yaqinda tugabti, uygaman;

Ravish so'z turkumiga oid so'z: xozi.

Demak, noadabiy unsurlar ajratib olindi. Shundan noadabiy sintaktik shakllarni toppish uchun tarkiban shakllangan so'zlarga murojaat etiladi: yurimman, yuribti, qolli, omang, boryotudi, aytyotudila, tugabti, tuxtagan, qomoqchidim, uzgarib qolli, keluvir, diyoptila; yaqinda tugabti, uygaman;

Fe'l so'z turkumiga oid ravish dosh shakli -im tarzida ifodalangan: yurimman. Yuribti misoli asosida ko'rish mumkinki, ravishdosh -ib shaklining turli variantda qo'llanilishi undan keyin birikib keluvchi qo'shimchaga bog'liq ekan. Ya'ni -man shaxs-son shakli regressive assimilatsiyani hosil qilyapti. Shuningdek, -di zamon shakli -li, -ti tarzida progressiv assimilatsiyani yuzaga keltirgan. -yap hozirgi zamon shakli -yop tarzida qo'llangan: diyoptilar. Shaxs-son III shaxs ko'plik qo'shimchasi -tila tarzida aks etgan: diyoptila. Ot so'z turkumidagi kelishik shakllarida -da o'r'in-payt shaklining o'rniga -ga jo'naliш kelishigi qo'llangan. Anonim xatda, bundan tashqari, so'z o'zaklarida ham fonetik hodisalar kuzatiladi. Bu tahlil bitta yozishma asosida olib borildi. Dalil sifatida olingan bir nechta yozishmalar o'rganiladi va tahlilga tortiladi. Yuqoridaqidek noadabiy sintaktik shakllar aynan takrorlangan bo'lsa, yozishma bitta muallif tomonidan yozilgan bo'ladi, shuningdek, ijrochining yashash hududi ham shu asosida taxmin qilinadi. Muallifning hududini aniqlash uchun quyidagi uch viloyatga mansub shaxslardan yozdirib olingan matn tahlili asos bo'lishi mumkin.

2.3.2. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy sintaktik shakllarning hududlararo lingvistik tahlili

Anonim shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik shakllarni aniqlash masalasida tilshunoslikda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu ilmiy ma'lumotlarda noadabiy grammatik shakllarning hududiy xususiyatlari chastotasi keng yoritib berilgan. Noadabiy grammatik unsur mavjud bo'lgan hujjatlar soniga ko'ra hududlar farqlangan.

Quyida o'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy sintaktik shakllarni aniqlash va korpus yaratish uchun manba sifatida tahlillar berildi. Bunda amerikalik olima V. Milomning millatlararo milliy tilni aniqlash tadqiqotidan foydalanildi. Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy hududi bo'ylab noadabiy sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni aniqlash uchun dalil sifatida 5 ta mavzuda 170 so'z atrofidagi bayon yozdirib olindi. Tajriba qatnashchilarining yoshi qariyb bir-biriga yaqin. Turli tashqi ta'sirlar, diktant tarzida aytib o'tirish kabi

holatlar chegaralandi. Qashqadaryo hududi bo'ylab noadabiy sintaktik shakllar tahlili quyidagi jadvalda berildi:

1-jadval

Qashqadaryo viloyati shevasida noadabiy sintaktik shakllar xos xususiyatlar katalogi

| Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
|------------------|-------------------------------|----------------------------------|--|
| 1 | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni qo'llangan <i>Dadamni ishlari...</i> |
| 2 | Ot so'z turkumi | Tanlov | -dan chiqish kelishigi o'rnida -da <i>...bo'sh kelmasda dars qilishni...</i> |
| 3 | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida; ingiz -uz tarzida qo'llangan <i>...o'g'liż sizlarni yuzuzni...</i> |
| 4 | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida <i>O'zlarizda nima...</i> |
| 5 | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni <i>...Xolamni qizini...</i> |
| 6 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -sizlar II shaxs-son shakli -sila tarzida <i>...berayotgan ekansila...</i> |
| 7 | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida <i>O'zizni asrab...</i> |
| 8 | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida <i>O'ziz shaharda kelmaysizmi</i> |
| 9 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -sizlar II shaxs-son shakli -sila tarzida <i>...mazza qilib dam olib ketasilar.</i> |
| 10 | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida <i>...o'zizga vaqt ajratib keling.</i> |
| 11 | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida; o' tovushi u ga al mashgan va l tovushi tushgan <i>...o'zizni uylasayiz bo'maydimi...</i> |
| 12 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -sizlar II shaxs-son shakli -sila tarzida <i>...dam olib gaytasilar...</i> |
| 13 | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni <i>Singlimni o'qishlari...</i> |
| 14 | Ot so'z turkumi, punktuatsiya | Tanlov, fonetik, texnik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida, vergul qo'yilishida <i>...o'ziz_dadam...</i> |
| 15 | Yozuvda | Texnik | O harfi gap o'rtasida bosh harf bilan yozilgan <i>...Ota-Onamni sog'ligi...</i> |
| 16 | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ni tushum kelishigi tushirib qoldirilgan <i>...har qanday sovg'a yoqtiradi...</i> |
| 17 | Morfologiya | Tanlov | -da o'rinn-payt kelishigi qo'llanmagan <i>Chetlar o'qib kelish...</i> |
| 18 | Punktuatsiya | Texnik | Vergul <i>...kelsang birga tog'da chiqardik...</i> |
| 19 | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | -sizlar II shaxs-son shaklida r tovushi tushgan <i>...to'y boshlab qo'yibsila...</i> |
| 20 | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni qo'llangan <i>...o'zimni kallektivim...</i> |
| 21 | Ot so'z turkumi | tanlov | -da va -ga kelishiklarining almashinovi <i>...yaqinga tugapti...</i> |
| 22 | Fe'l so'z turkumi | tanlov | -di zamon shakli-ti , -b ravishdoshi -p tarzida <i>...yaqinga tugapti...</i> |
| 23 | Ot so'z turkumi | tanlov | -da va -ga kelishiklarining almashinovi <i>...hozi uygaman...</i> |
| 24 | Fe'l so'z turkumi | tanlov | -yap zamon shakli -op tarzida <i>Onamam keluvir deyoptila...</i> |
| 25 | Fe'l so'z turkumi | tanlov | -dilar shaxs-son shakli -tila <i>Onamam keluvir deyoptila...</i> |

Navoiy viloyati shevasiga oid noadabiy sintaktik shakllarning yozuvdagi katalogi

| | Xususiyat | Xato turi | Xato turning tavsifi | Misollar |
|---|-------------------------------|------------------|---|--|
| 1 | Ot so‘z turkumi, punktuatsiya | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida | ... <u>maqtanishiz</u> kerak... |
| 2 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov, fonetik | -di o‘tgan zamon shakli assimilatsiya hodisasiga uchrab -ti tarzida ifodalangan | ... <u>telefon qilganingni eshttim</u> ... |
| 3 | Fe'l so‘z turkumi | Fonetik | -di zamoni assimilatsiyaga uchrab -ti shaklida ifodalangan | ... <u>uyg‘otting</u> ... |
| | Fe'l so‘z turkumi | fonetik | -salar mayl shakli -sala tarzida | ... <u>qilsala yoqadi</u> ... |
| 4 | Fe'l so‘z turkumi | Fonetik | -man shaxs-son -pan shaklida; assimilatsiya jar. | ... <u>harakat qilyappan</u> ... |

Buxoro shevasiga oid noadabiy sintaktik shakllarning xususiyatlar katalogi

| | Xususiyat | Xato turi | Xato turning tavsifi | Misollar |
|----|----------------------------------|------------------|--|---|
| 1 | Ot so‘z turkumi | Tanlov | O‘rin-payt kelishigi o‘rnida jo‘nalish kelishigi | ... <u>goshimga bo‘sala</u> ... |
| 2 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -li tarzida | <u>Kam golli mangayam</u> ... |
| 3 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -dilar zamon shakli -la tarzida; | <u>Dadam aytala</u> ... |
| 4 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -dilar shaxs-son shakli -tila tarzida; -yap zamon shakli -op tarzida | ... <u>apamni o‘qitoptila</u> ... |
| 5 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -sinlar mayl shakli -sinla tarzida | ... <u>kesinla yana o‘ylab ko‘ramiz</u> ... |
| 6 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -dilar shaxs-son shakli -la tarzida | ... <u>dollir uzotalla</u> ... |
| 7 | Ot so‘z turkumi, so‘z qo‘llashda | Fonetik, tanlov | Reduksiya: -im shakli -m tarzida; o‘zlashma so‘z noto‘g‘ri qo‘llangan | ... <u>velik olishm kerag</u> ... |
| 8 | Ot so‘z turkumi | Fonetik | Reduksiya: -im shakli -m tarzida | ... <u>tug‘ilgan kunmga</u> ... |
| 9 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -sinlar mayl shakli -sinla tarzaida | ... <u>kesinlada enni</u> ... |
| 10 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -ti tarzida | ... <u>mani bugungi klinik yahshi o‘tti</u> ... |
| 11 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -li tarzida | ... <u>yahshi avqot pishirib bersa bo‘lli</u> ... |
| 12 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -li tarzida | ... <u>abet gillim</u> ... |
| 13 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -ar zamon shakli -or tarzida | <u>Bzani aylanishga chigordi</u> . |
| 14 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -ni tarzida | ... <u>aylannim lekn</u> ... |
| 15 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -ingiz II shax shaxs-son shakli -yiz tarzida | <u>Kesayiz sizga</u> ... |
| 16 | Fe'l so‘z turkumi | Tanlov | -ar sifatdoshi -ay tarzida; r tovush tushishi | ... <u>maraka qilaykanla</u> ... |
| 17 | Morfologiya | Tanlov, fonetik | -ib ravishdoshi ip tarzida; -dilar III shaxs shaxs-son shakli -tila tarzida; o‘zlashma so‘z noto‘g‘ri qo‘llangan | <u>Tilifon qlip ayttila</u> ... |

Matnning lingvistik xususiyatlari kategoriyalashtirildi, xato turi, misoli va xususiyatiga ko'ra tahlil qilindi. Ushbu tahlillardan maqsad Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining nisbatan tor ko'lAMDAGI milliy korpusi uchun asos yaratishdir. Bu O'zbekistonning boshqa viloyatlari misolida tahlil qilinishi uchun taklif sifatida beriladi.

Qashqadaryo shevasiga oid tahlilda 15 ta birikma, Navoiy viloyatida 1 ta va Buxoro viloyatida 3 ta birikmada ot so'z turkumiga oid noadabiy sintaktik shakllar uchraydi. Ulardan ko'pchiligidagi qaratqich va tushum kelishiklarining o'zaro o'rinni almashinuviga kuzatiladi: dadamni ishlari, sizlarni yuzuzni kabi. Aslida hokim bo'lak tarkibida egalik shakli borki, u tobe bo'lakda qaratqich kelishigini taqozo etadi. Tushum va qaratqich kelishiklari qo'shimchalarini ishlatishda kamchiliklar gazeta matnlarida ham juda ko'plab uchraydi. M: Xayhot, kutilmagan fofia Georgiyni olamdan erta ko'z yumishiga sabab bo'ldi (O'O., 23.12.99). Shulardan biri oliy ta'limni bakalavr va magistr bosqichlariga bo'linishi-dir. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda har ikkala darajani mehnat faoliyati doirasi maxsus qonunlar bilan belgilab qo'yilgan, ...xalqimiz asrlar osha e'zozlab kelayotgan milliy urfodatlar, an'analarimiz, ularni yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida ma'ruza qildilar. ...boquvchisining yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalarga yanada ko'proq moddiy yordam ko'rsatiladi (Z., 20.11.01). Gazetaning bir sonidan olingan ushbu misollarda qaratqich kelishigi o'rnida tushum, oxirgisida tushum o'rnida qaratqich kelishigi qo'shimchasi noto'g'ri ishlatilgan. Ushbu fanning puxta va mukammal o'qitishda darsdan tashqari tashkil etilayotgan mashg'ulotlar, ko'rik-tanlovlari, uchrashuvlarning ahamiyati ham katta bo'lmoqda (XS., 8.11.02) . Misolda tushum kelishigi qo'shimchasi o'rnida qaratqich kelishigi qo'shimchasi ishlatilgan. Natijada uslubiy noravonlik hosil bo'lgan.

Qashqadaryo va Buxoro hududida o'rinni-payt va jo'nalish kelishiklarining ham o'rinni almashinuviga kuzatiladi: yaqinga kellim, uygaman kabi. Shuningdek, o'rinni-payt kelishiklarining noo'rinni qo'llanilishi jarayoni ham kuzatiladi: tog'da chiqardik; shaharda kelmaysizmi kabi. Bu shaxsiy yozishma misolida kuzatilsa, ba'zan gazeta tilida ham grammatik shakllarda me'yorning buzilishi quyidagi hollarda sodir bo'lishi mumkin:

1. Kelishik shakllarini to'g'ri ishlata olmaslik. Ularni farqlamaslik, belgili va belgisiz holatlaridan noto'g'ri foydalanish, kelishiklarning o'zaro sinonimiyasidan to'g'ri foydalanmaslik, kelishiklarni qo'llashda shevaning ta'siri.

2. So'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash.

3. Fe'l nisbatlarin farqlamaslik.

4. Affiksal pleonasm kabi . Aslida gazeta matnlari, badiiy asarlar kabilarning ham lingvistik ekspertiza tarmog'i bo'lib, barchasi uchun maxsus korpusning yaratilishi ayni muddaodir. Yuqoridagi hududlararo tahlilda o'zaro o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Bu quyidagi jadvalda aks etgan :

| | Noadabiy sintaktik shakl | Buxoro | Qashqadaryo | Navoiy |
|-------------------------|-----------------------------|--------|-------------|--------|
| Egalik shakli | -yiz (egalik sh.) | + | | |
| | -iz (egalik sh.) | + | + | + |
| | -uz | | + | |
| Kelishik shakli | -da o'rniga -ga | + | + | |
| | Ning o'rniga -ni | + | + | |
| | -dan o'rniga -da | | + | |
| | -da belgisiz kelishi | | + | |
| Zamon shakli | -ti | + | + | + |
| | -li | + | + | |
| | -op | + | + | |
| | -o'm | + | | |
| | -ni | + | | |
| | -or | + | | |
| Shaxs- son shakli | -ay | + | | |
| | -la shaxs-som | + | | |
| | -tila | + | + | |
| | -pan | | | + |
| Mayl shakli | -sila | + | + | |
| | -sinla mayl | + | | |
| Mayl shakli | -sala | | | + |

Tahlildan ayonki, nisbatan, Navoiy viloyatida noadabiy sintaktik shakllar kam qo'llanilar ekan. Bu masalada Navoiy viloyatida noadabiy lug'aviy shakllar ustunlikni egallagan(ikkinchi bo'limda yoritilgan). Navoiy viloyatida fe'l so'z turkumiga oid noadabiy sintaktik shakllar ko'pchilikni tashkil etadi. Ot so'z turkumiga oid noadabiy egalik shakllari yuzasidan Qashqadaryo va Buxoro viloyati shevasi Navoiy hududi shevasi bilan umumiylikka ega. Qashqadaryo hududi shevasida ot so'z turkumiga xos egalik shakllarida ayrim xatoliklar kuzatiladi. Masalan, o'ziz, ishiz, o'g'liz, o'zlariz kabi so'zlarda II shaxs ko'plikdagi -ingiz egalik shakli -iz, -lariz shaklida talaffuz etiladi va bu yozuvda aks etgan. Masalan, Navoiy hududida ham maqtanishiz kerak birikmasida harakat nomi shaklidan keyin II shaxs egalik qo'shimchasi -iz tarzida qo'llaniladi. Shuningdek, Qashqadaryo hududida kelishik shakllarining noo'rin tarzda belgisiz qo'llanishi ham kuzatiladi: chetlar o'qib kelish; har qanday sovg'a yoqtiradi kabi. Aslida chetlarda o'qish va har qanday sovg'ani yoqtiradi tarzida qo'llanilishi adabiy me'yor sanaladi. Bu so'zlarning sintaktik aloqasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni hokim va tobelik munosabati yo'qoladi. Bu esa gap strukturasiga ta'sir qiladi. Shuningdek, kelishik shakllar o'zaro o'rin almashinushi Qashqadaryo va Buxoro shevasida ko'p uchrar ekan.

Qashqadaryo viloyatida fe'l so'z turkumiga mansub noadabiy sintaktik shakllardan II shaxsdagi shaxs-son qo'shimchasi nibatan faoldir. -sizlar shakli -sila tarzida talaffuzda ham, yozuvda ham aks etyapti, ya'ni qo'shimcha oxirida r tovush tushish hodisasi kuzatilyapti. Navoiy viloyatida esa fe'l so'z turkumiga oid noadabiy sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar, nisbatan, ko'p uchraydi. Bu fe'lning o'tgan zamoni -di shakli -ti tarzida ifodalanadi: uyg'otting, telefon qilganining eshttim. Bundan tashqari Navoiy hududida fe'l so'z turkumiga xos I shaxs shaxs-son shaklining ham noadabiy qo'llanilishi kuzatiladi: qilyappan. Ushbu so'zda assimilatsiya hodisasi yuz bergen bo'lib, bu yozuvda ham aks etyapdi. To'g'ri, assimilatsiya hodisasi yozuvda aks etib fonetik tamoyillarni hosil qilishi mumkin, ammo tussiz, ottan kabi so'zlarda bu jarayonning yozuvda aks etishi adabiy me'yorga zid sanaladi. Bu Navoiyning o'ziga xosligini bildiradi, chunki qolgan ikki viloyatda bunday shakl mavjud emas. Ammo shuni aytish kerakki, viloyat tarkibidagi Navoiy hududi chegarasiga

yaqin kichik hududlarga xos shevalar o'xshash bo'lishi mumkin. Bu xulosa 5 tamatn misolida chegaralangandir. Qolgan viloyatlardagi noadabiy unsurlarning hududiy xususiyatlari tahlil talabdir.

Noadabiy egalik shakllari Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro hududlarida deyarli bir-xil qo'llaniladi. Noadabiy kelishik, shaxs-son va zamon shakllarining yozuvda ifodalanishiga ko'ra Qashqadaryo va Buxoro umumiylit kasb etadi. O'tgan zamon shakli -di assimilatsiya hosilasi sifatida -ti tarzida talaffuz etilishi va yozuvda aks etishi jihatidan har uchala hudud o'xshashdir. Matn tahlilidan ma'lum bo'ladiki, Navoiy hududiga doir fe'l so'z turkumlarining o'zak qismida fonetik hodisalar yuz beradi, qo'shimchalar esa adabiy me'yorga yaqin talaffuz etiladi.

Foydalanimilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Береля И.В. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них. Кандидат филологические наук дис. Краснодар. 2007.- 68 с.
- 2.Mengliyev B., Turayeva D. Methods of linguistic examination by anonymous letters in the uzbek language. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities Volume-1 Issue-1. 101-105 pp.
- 3.Ражабов Н. Узбек шевашунослиги: Пед. интларининг Узб е к тили ва адабиёти, ун-тларнинг филология ф актлар и талабаларн учун д арслик. - Т.: Уқитувчи , 1996. -194 б.
- 4.Malmasi, S., Tetreault, J., & Dras, M. Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, 2015, 172-178 pp. doi:10.3115/v1/w15-0620;
- 5.Chodorow, M. and C. Leacock. An unsupervised method for detecting grammatical errors, Proceedings of 1st Meeting of N. American Chapter of Assoc. for Computational Linguistics, (2000) 140-147.
- 6.Baayen, H., H. van Halteren, F. Tweedie, Outside the cave of shadows: Using syntactic annotation to enhance authorship attribution.In "Literary and Linguistic Computing, 11, (1996).
- 7.Peng, F., D. Schuurmans, S. Wang. Augmenting Naive Bayes Classifiers with Statistical Language Models. Inf. Retr. (2004) 7(3-4): 317-345
- 8.Koppel, M., Schler, J., & Zigdon, K. Determining an author's native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD '05. 2005, 624-628 pp. New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947;
- 9.Кўнгуроров Р., Каримов С., Курбонов Т. Нутқ маданияти асослари. I қисм. 1985,. 39-б.
- 10.Burrows, J. F., (1992). Computers and the Study of Literature. In: C.S. Butler (Ed.), Computers and Written Texts. Oxford: Blackwell. (pp. 167-204). Burrows, J. F., (1993). Tiptoeing into the infinite: testing for evidence of national differences in the language of English narrative. In: S. Hockey and N. Ide (Eds.), Research in Humanities Comput
- 11.Holmes, D. I., (1994).Authorship Attribution.Computers and the Humanities 28(2):87-106. Holmes, D. I. and Forsyth, R. S., (1995). The Federalist Revisited: New Directions in Authorship Attribution. Literary and Linguistic Computing 10(2):111-127.
- 12.Abdusaidov A. O'qituvchining nutq mahorati. Ўқув-услубий қўлланма. - Samarqand: SamDU nashri, 2013. -103 b.
- 13.Abdusaidov A. O'qituvchining nutq mahorati. Ўқув-услубий қўлланма.- Samarqand: SamDU nashri, 2013. -106 b.